

BUGUNGI KUNDA MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MAVJUD NAZARIY ASOSLARI

Pardayev Asror Ikromovich

O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti

Annotatsiya: Zamonaviy axborotlarning shiddat bilan tarqalishi, ijtimoiy ahamiyatga molik (ilmiy, texnologiyaga oid, madaniy va boshqalar) axborotlarning nihoyatda oshib borishi har qanday jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ushbu ishda mediata'lim texnologiyalarining mavjud nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mediata'lim, axborot kommunikatsion texnologiyalar, Ommaviy kommunikatsiya vositalar, mediamadaniyat.

Axborot kommunikatsion texnologiyalari ishlab chiqarishdagi rivojlanish axborotlarni yaratish, uzatish, saqlash, ishlash, ko'paytirish va jarayonlarini avtomatlashtirishga bo'lgan talab, axborotni kitoblar, gazetalar, foto va kino ko'rinishida taqdim etishga asoslangan an'anaviy axborot texnologiyalari bilan bir qatorda yangi turdagi axborot texnologiyalari vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Yangi axborot texnologiyalari an'anaviylarini siqib chiqarayotgani yo'q lekin shu bilan birga axborotlar miqdori kamayayotgani ham yo'q. Jamiyatda esa insonning axborotlarga moslashuvi yoki boshqacha aytadigan bo'lsak adaptatsiya muammosi yuzaga kelmoqda. Ko'p sondagi belgili tizimlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning natijasi o'laroq ko'pkomponentli "axborot maydoni"ni tashkil topishi, insonning o'ziga xos axborotlar olamini tashkil etadi. Vizual va audiovizual axborotdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish muammolari bilan zamonaviy pedagogikada vizual savodxonlik (inglizcha visual literacy) deb nomlangan yo'nalish tadqiq qiladi. Vizual savodxonlik tushunchasi turli nuqtai nazardan qaralishi mumkin: idrok etuvchi obyekt va subyekt o'rtasida kommunikatsiya (muloqotga kirishish) jarayoni sifatida; obrazlarni ko'rish, uning elementlarini qabul qilish, subyekt bilan o'zaro ta'sirlashuvi va subyektning ko'rish obrazlarini mutanosib qabul qila olish qobiliyati sifatida [1].

Ommaviy kommunikatsiya vositalarini "ommaviy kommunikatsiya" tushunchasi orqali tahlil qilib chiqish zarurdir. Ommaviy kommunikatsiya (lotincha communicatio so'zidan olingan bo'lib, xabar, eshittirish ma'nosini beradi) axborotni (matbuot, radio, kino, televideniye, ovoz yozish, internet kabi vositalar orqali) tayyorlash va tarqatishning zamonaviy ommaviy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan tegishli jamiyatning muayyan ma'naviy qadriyatlarini qaror toptirish va odamlarning munosabati, o'y-fikri va xulqiga mafkuraviy, iqtisodiy yoki tashkiliy ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalaniladi. Aksariyat tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, ommaviy kommunikatsiyaning tavsifi va maqsadlari siyosiy kurash quroli sifatida boshqaruv, targ'ibot, madaniyatni yoyish, reklama orqali jamiyatning ijtimoiy tabiatini aniqlaydi [2].

Mediamadaniyatni turli pozitsiyadan ko'rib chiqish mumkin:

1. Media sohasi - moddiy va intellektual qadriyatlar to'plami;

2. Ijtimoiy muhitda ularning yaratilishi va faoliyat yuritishining tarixiy aniqlangan tizimi;

3. Mediamadaniyat auditoriyaga nisbatan mediamatnni qabul qilish, tahlil etish, baholash, mediaijod bilan shug'ullanish, media jabhasidagi yangi bilimlarni o'zlashtirishga qodir inson shaxsini rivojlantirish darajalari tizimi sifatida namoyon bo'lishi mumkin [2].

Zamonaviy auditoriyada mediamadaniyatni (boshqacha aytganda, uning media savodxonligini) maqsadli shakllantirish mediata'lim berish doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Ayni paytda dunyoda mediata'lim berishning yagona shakllangan nazariy konsepsiyasi mavjud emas. Lekin, asosiy nazariy yondashuvlarni shartli ravishda ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Mediata'lim berishning "inyeksion" nazariyasi – medianing "inyeksion" nazariyasiga asoslanadi (Inyeksion nazariya (Hypodermic needle theory)- u ommaviy axborot vositalarining yoshi, madaniy, geografik va boshqa xususiyatlariga e'tibor bermay, auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini tasdiqlaydi) - media mediamatn asosan mohiyatini tushunmaydigan passiv iste'molchilar ommasidan iborat auditoriyaga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi. Shunday ekan, mediata'lim berishning asosiy vazifasi mediaga haddan tashqari berilishning salbiy effektini kamaytirish. Mediapedagoglar o'quvchilarga real voqeliq va mediamatn o'rtasidagi farqni medianing salbiy ta'sirlarini aniq misollari yordamida tushunishga yordam berishadi.

2. Mediata'lim berish nazariyasi auditoriya "ehtiyojlarini qondirish" manbai sifatida - media sohasining nazariy asosi bo'lib "ehtiyoj va qoniqish nazariyasi" hisoblanadi: medianing auditoriyaga ta'siri chegaralangan, talabalar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, mediamatnni mustaqil tanlash va baholash imkoniga ega. Mediata'limdan asosiy maqsad – o'quvchilarga mediadan o'z istagi va moyilligiga mos holda foyda olishlariga yordam berish.

3. Medianing "amaliy" nazariyasi. Nazariyaning asosi – media sohasida "ehtiyoj va qoniqish"ning moslashtirilgan nazariyasi, ya'ni mediatexnika jabhasidagi qiziqishni qanoatlantirish (kino/video tasvir olishga va boshqalarga o'rgatish). Ushbu yondashuv doirasida medianing auditoriyaga ta'siri cheklangan, ammo mediata'lim berishning asosiy maqsadi o'quvchi va talabalarni yoki o'qituvchilarni mediajihozlarning texnik qurilmasini batafsil o'rgangan hamda jihozlardan foydalanishning amaliy ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

4. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish nazariyasi. Mazkur nazariyaning nazariy asosi "kun tartibi" nazariyasi hisoblanib, bunda media aholi orasida ijtimoiy qadriyatlar va axloq modellarini tarqatish vositasi sifatida qaraladi. Mediata'lim berishning yetakchi maqsadi – o'quvchilarni medianing manipulyativ ta'siridan himoya qilish, hozirgi demokratik jamiyatning axborot oqimiga nisbatan mo'ljalni olishga o'rgatish. Medianing manipulyativ imkoniyatlari haqida yetarli bilimlarga ega bo'lmagan, olinayotgan axborotni to'laqonli tushunish va tahlil qilish mahorati bo'lmagan inson medianing xurujlariga qarshi tura olmaydi.

5. Mafkuraviy nazariya. Media - qaysidir bir ijtimoiy sinfnings manfaatlariga moslab jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishga qodir. O'sib kelayotgan yosh avlod media yordamida ta'sir o'tkazish uchun eng maqbul auditoriya hisoblanadi.

Mediata'limning maqsadi - yoki auditoriyada ommaviy kommunikatsiya tizimini o'zgartirishga istakni yuzaga chiqarish, rag'batlantirish, yoki auditoriyada mavjud media tizimi dunyodagi eng yaxshisi ekani haqidagi mutlaq fikrni qaror toptirish. Hozirgi davr mediata'limida mazkur nazariya transformatsiyalanib, o'zgarishga yuz tutdi, sinfiy prioritetlar o'rniga, birinchi o'ringa mediaaxborotlashtirishga milliy-mintaqaviy va ijtimoiy-siyosiy yondashuvlar chiqdi.

6. Mediata'limning semiotik nazariyasi. Mediamatnlarning ko'p ma'noli belgili tavsifi auditoriya, ayniqsa, bolalar tomonidan to'laqonli, jiddiy qabul qilinmaydi. Mediata'limning bosh maqsadi mediamatn kodlari va "grammatikasi"ni o'rganish asnosida mediamatnlarni to'g'ri tushunib o'zlashtirishga ko'maklashishdan iborat.

7. Mediata'limning madaniyatshunoslik nazariyasi. Nazariy asos sifatida medianing madaniyatshunoslik nazariyasi olinadi - media mediamatnlarni qanday talqin etish, interpretatsiya qilishni nazarda tutadi. Shunday qilib, media auditoriyaning idroki va bilimlarini qanday boyita olishini tushunishda o'quvchilarga yordam ko'rsatishi mediata'limning asosiy maqsad ekani ayon bo'ladi.

8. Mediata'lim berishning estetik (badiiy) nazariyasi. Bunda ham medianing madaniyatshunoslik nazariyasi asos sifatida gavdalanadi. Mediata'limning bosh maqsadi esa mediaaxborot badiiy aspekti asosiy qonunlari va tilini tushunishda, badiiy mediamatnlarni estetik qabul qilish, ularni tahlil etish qobiliyatini rivojlantirishda o'quvchilarga ko'mak ko'rsatishdan iborat.

Mediata'lim berishning yuqorida nomlari zikr etilgani nazariyalarini tahlil eta turib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mediata'lim berishning "inyeksion" nazariyasi asosiy e'tiborni medianing salbiy ta'sirlariga, shuningdek, zo'ravonlikning salbiy ta'siri muammolariga qaratishga undaydi. Bunda media komikslar, reklama, ishonchsiz ma'lumot tarqatuvchi matbuot misolida "madaniy degradatsiya agenti" sifatida ko'zga tashlanadi.

2. Ko'plab nazariy yondashuvlarda "tanqidiy tafakkurni rivojlantirish" nazariyasi bilan o'xshash jihatlarni topish mumkin:

- mediata'lim berishning mafkuraviy, ideologik nazariyasi "tanqidiy tafakkurni rivojlantirish" nazariyasida bo'lgani kabi biror bir mediamalumot kimning manfaatlariga javob berishi va u aholining qaysi tabaqalariga mo'ljallanganini aniqlashtirishga asoslangan;

- mediata'limning semiotik va "tanqidiy tafakkurni shakllantirish" nazariyasi medianing manipulyativ imkoniyatlarini hamda mediamatnlarni tahlil qilishdagi yondashuvlar o'rtasida bevosita uyg'unlik kuzatiladi;

- mediata'limning madaniyatshunoslik nazariyasi bilan o'xshatishlik pedagoglar vazifasiga kirib, u orqali o'quvchilar mediamatnlarni baholashga va tanqidiy tahlil qilishga o'rgatiladi.

3. Aksariyat nazariyalarda markaziy o'rin ta'lim oluvchilarga ajratilib, bu esa shaxsga ta'lim berishning zamonaviy yondashuvlariga mos keladi.

4. Mediata'lim konsepsiyalarida ham umuman olganda media imkoniyatlaridan foydalanishga ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va ijodiy yondashuvlar e'tiborga olinadi. Ushbu yondashuvlarni ro'yobga chiqarishda mediapedagoglar o'quv faoliyatlari jarayonida turli usullarni tatbiq etadilar:

- deskriptiv usul (ishtirok etuvchilar va voqea-hodislarni qayd etgan holda umumiy mazmunni qayta soʻzlab berish),
- shaxsga bogʻliq boʻlgan usul (mediamatn bilan bogʻliq emotsiyalar, munosabatlar, xotiralarni tasvirlash),
- tahlil usuli (mediamatn tili, tuzilishi, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish),
- tasniflash, klassifikatsiyalash usuli (tarixiylik kontekstida asarning oʻrni),
- tushuntirish, izohlash usuli (media matn haqidagi fikr, muhokamalarni shakllantirish),
- baholash usuli (muayyan mezonlar, kriteriyalar asosida mediamatnning yaxshi va ustun tomonlari toʻgʻrisida xotima, xulosalarni ifoda etish).

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ковшарова Т.В.Формирование медиаобразованности старшеклассников в эколого-информационном педагогическом пространстве урока. Диссертация кандид. пед. наук. – Иркутск, 2006. – 186 с.
2. Максимова Г.П. Медиавоспитание в высшей профессиональной коле. Ростов н/Д.: Изд-во Ростов. гос. пед. ун-та, 2006. 180 с.
3. Исаков, Б.А. Развитие медиакомпетентности учителей в условиях ресурсного центра: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Исаков Бейбит Абаканович. – Барнаул, 2013. – 179 с

ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КОГНИТИВ ФАОЛИЯТИНИ ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ (АКАДЕМИК ЛИЦЕЙ АНИҚ ФАНЛАР ЙЎНАЛИШИ МИСОЛИДА)

Боймуротов Асқарали Бургутович

Тошкент молия институти академик лицейи

gentramokre@gmail.com

Аннотация. Давлат умумтаълим стандартларида таълимнинг педагогик мақсадлари ўқувчиларнинг ўқишдаги муваффақиятларидан кўра кўпроқ шахсий ривожланишига йўналтирилган. Мақолада информатика дарсларида ўқувчиларнинг когнитив фаолиятини индивидуаллаштириш борасида ўқувчи шахсини ҳар томонлама ривожлантириш зарурлиги, олинган билим ва кўникмаларни ривожлантириш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. ривожлаништирувчи таълим, узлуксизлик, маҳорат, табақалаштирилган таълим, бошқарув тамойиллари, тизим, вазият.

Бошланғич синфлар, асосий ва ихтисослаштирилган мактабларда ҳамда академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида ахборот муҳитида ҳаракат қила оладиган ва онгли қарорлар қабул қила оладиган, ижодий фаолият усуллари билладиган, ўз-ўзини тарбиялаш, мустақил таълим олиш, нафақат мавжуд билимларни ўзлаштиришга, балки янгиларини яратишга тайёр бўлган кадрлар тайёрланиши мамлакатимиз таълимини модернизациялаш асосида яратилган